



UO'K: 130.2:39:316.74

Nilufar X. MAMATQULOVA,

Dotsent, PhD, Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali, Termiz, O'zbekiston

E-mail: nilufarmamatqulova53@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0004-4269-6488>

F.f.d., professor A.Sharipov taqrizi asosida

MILLIY MAROSIMLARNING TRANSFORMATSIYASI MUAMMOSINI TADQIQ ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Аннотация

Ushbu maqolada milliy marosimlar transformatsiyasi muammosini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etishning metodologik asoslari yoritilgan. Marosim bir vaqtning o'zida ham qat'iy an'ana, ham doimiy o'zgaruvchan ijtimoiy hodisa ekanligidan kelib chiqib, uni o'rganishda tarixiylik, tizimlilik, mazmun va shakl dialektikasi, sinergetika, germenevtika hamda aksiologik tamoyillar kabi kompleks metodologik yondashuvlar qo'llanilgan.

Kalit so'zlar: Milliylik, marosim, transformatsiya, an'ana, desemantizatsiya (ma'nosizlashuv), dialektika, sinergetika, germenevtika, mezon, tarixiylik.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИССЛЕДОВАНИЯ ПРОБЛЕМЫ ТРАНСФОРМАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ ОБРЯДОВ

Аннотация

В данной статье освещаются методологические основы научно-теоретического исследования проблемы трансформации национальных обрядов. Исходя из того, что обряд является одновременно и строгой традицией, и постоянно изменчивым социальным явлением, при его изучении применялись такие комплексные методологические подходы, как историзм, системность, диалектика содержания и формы, синергетика, герменевтика, а также аксиологические принципы.

Ключевые слова: Национальная идентичность, обряд, трансформация, традиция, десемантизация (утрата смысла), диалектика, синергетика, герменевтика, критерий, историзм.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE STUDY OF THE PROBLEM OF THE TRANSFORMATION OF NATIONAL RITUALS

Annotation

This article elucidates the methodological foundations for the scientific and theoretical study of the transformation of national ceremonies. Based on the premise that a ceremony is simultaneously a strict tradition and a constantly evolving social phenomenon, its study employs complex methodological approaches such as historicity, systematicity, the dialectic of content and form, synergetics, hermeneutics, and axiological principles.

Key words: National identity, ceremony, transformation, tradition, desemantization (loss of meaning), dialectics, synergetics, hermeneutics, criterion, historicity.

Kirish. Bugungi globallashuv, axborot texnologiyalarining mislsiz rivojlanishi va turli madaniyatlar qorishuvi jarayonida har qanday millatning o'ziga xosligini belgilab beruvchi milliy an'ana va marosimlar jiddiy sinovlarni boshidan kechirmoqda. Marosimlar faqatgina tarixiy xotira yoki o'tmish sarqiti emas, balki jamiyatning ma'naviy holatini, uning qadriyatli yo'nalishlarini o'zida aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zgudir. Shuning uchun ham marosim tushunchasining mohiyati, uning ijtimoiy funksiyalari va uni o'rganishning nazariy yondashuvlari ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida doimiy dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan.

Bu masala o'ziga xos murakkablikka ega bo'lib, uning asosi marosimning bir vaqtning o'zida ikkita qarama-qarshi xususiyatni o'zida mujassam etishidir. Bir tomondan, marosim an'ana sifatida qat'iy davomiylik, barqarorlik va takroriylikni ifodalaydi. U avlodlar o'rtasidagi ma'naviy uzviylikni ta'minlovchi vosita sifatida o'zining asriy qoliplarini saqlab qolishga intiladi. Ikkinchi tomondan esa, u tirik ijtimoiy hodisa sifatida qotib qolgan dogma emas; u doimiy ravishda o'zgarib, davr talablariga, yangi iqtisodiy-siyosiy va madaniy sharoitlarga zamonga moslashib boradi. Aynan shu barqarorlik va o'zgaruvchanlik o'rtasidagi uzluksiz kurash hamda dialektik

aloqadorlik marosimlar transformatsiyasi jarayonining negizini tashkil qiladi.

Ma'lumki, har qanday ilmiy izlanishda nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish mexanizmi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Oldingi tadqiqotlarda marosimlarning ijtimoiy funksiyalari (masalan, jipslashtirish, sotsializatsiya, regulativ xususiyatlari) va ularni o'rganishning umumiy nazariy yondashuvlari tahlil qilingan bo'lsa-da, ularning bugungi shiddatli davrdagi transformatsiyasini (strukturaviy va ma'noviy o'zgarishlarini) o'lchash va baholashning yagona, izchil mexanizmi yetarlicha shakllanmagan. Shundan kelib chiqib, ushbu tadqiqotning bevosita predmeti-milliy marosimlar transformatsiyasini ilmiy jihatdan tahlil qilishning metodologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda milliy marosimlar transformatsiyasi kabi ko'p qatlamli va murakkab ijtimoiy-madaniy hodisani yaxlit, obyektiv va chuqur o'rganish maqsadida o'zaro bir-birini to'ldiruvchi nazariy va empirik usullar majmuasidan foydalanildi. Marosim madaniyatidagi o'zgarishlarni tahlil qilish asosan oltita yetakchi metodologik prinsipga tayandi:

Tarixiylik prinsipi: Bu tamoyilga ko'ra, har bir marosim uzilgan holda emas, balki ma'lum bir tarixiy sharoitda

shakllangan va ijtimoiy ehtiyojlarning o'zgarishi bilan bog'liq holda rivojlanuvchi jarayon sifatida o'rganiladi. Ushbu yondashuvning mumtoz Sharqona namunasi Abu Rayhon Beruniyning "Osor ul-boqiya" asarida o'z ifodasini topgan. Tadqiqotda Beruniyning tarixiy-qiyyosiy usuliga tayanib, marosimlarning siyosiy va diniy sharoitlar ta'sirida qanday evrilishga yuz tutgani, biroq ularning asl mohiyati qaysi nuqtalarda saqlanib qolgani tahlilga tortildi.

Tizimli-strukturaviy yondashuv: Marosim jamiyatdan ajralgan holda mavjud bo'la olmaydi; u butun madaniy-qadriyatli tizimning ajralmas tarkibiy qismidir. Tizimning biror unsuridagi o'zgarish albatta boshqalariga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu prinsipni qo'llashda Ziyoz Ko'kalpning "hars" (milliy madaniy o'zak) va "madaniyat" (umumiy sivilizatsiyaviy unsurlar) o'rtasidagi farqlash g'oyasi muhim metodologik orientir vazifasini o'tadi. Tizimli yondashuv orqali marosimdagi o'zgarishlar uning yuzaki shakli (sivilizatsion) qatlamiga xosmi yoki chuqur ma'noviy (hars) o'zaggami, shuni aniqlash imkonini yaratildi.

Mazmun va shakl dialektikasi: Mazkur prinsip tadqiqotning markaziy metodologik o'qini tashkil etadi. Marosim doimiy ravishda qadriyatli-ma'noviy o'zak (mazmun) va tashkiliy-shakli ifoda (xarakter) o'rtasidagi o'zaro ta'sirga asoslanadi. Tahlillar jarayonida ushbu usul yordamida marosim unsurlari saqlanib qolgani holda ularning asl ma'nosi unutilishi (desemantizatsiya) yoki mazmun o'zgarsa-da, eski shaklning saqlanib qolishi oqibatida kelib chiqadigan noqisliklar - "marosim inqirozi" holatlari ochib berildi.

Sinergetik yondashuv: Bugungi shiddatli globalashuv, raqamlashuv va bozor iqtisodiyoti sharoitida an'anaviy yondashuvlar yetarli bo'lmaydi. Ilya Prigojin, Izabella Stengers va Xerman Xakenlar tomonidan ishlab chiqilgan sinergetika qoidalariga asoslanib, marosim madaniyatiga ochiq, nohiziqli va o'zini o'zi tashkil etuvchi tizim sifatida qaraldi. Bu yondashuv kuchli tashqi ta'sirlar ostida marosimlarning nima uchun faqat sekin-asta emas, balki beqarorlik (bifurkatsiya) nuqtasidan o'tib, sakrash tarzida yangi tizimga ko'chishini ilmiy tushuntirish imkonini berdi.

Germenevtik (tushunish) prinsipi: Marosimni faqat tashqi tomondan kuzatish yetarli emas. Klifford Girsning "zich tavsif" (thick description) usuliga tayangan holda, marosim qatnashchilarining subyektiv ma'no-mazmuniga - ularning bajarayotgan xatti-harakatlariga qanday ma'no yuklayotganiga e'tibor qaratildi. Aynan germenevtik tahlil orqali tashqi shakli bir xil ko'ringan harakatning turli ijtimoiy qatlamlar uchun mutlaqo turli ma'no kasb etishi (ma'noning bo'shab qolish jarayonlari) aniqlandi.

Amaliy (empirik) tadqiqot usullari: Nazariy tahlilni haqqoniy dalillar bilan boyitish va xulosalarning ishonchligini ta'minlash maqsadida qator amaliy usullar integratsiya qilindi. Xususan:

Turli davr va hududlardagi marosim shakllarini taqqoslash orqali o'zgarishlar dinamikasini ochib berishda qiyosiy usul;

Marosimning jamiyatdagi vazifalarini va ularning zaiflashuvini aniqlashda funksional usul;

Zamonaviy transformatsiya jarayonlarini kuzatish maqsadida ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlardagi materiallarning kontent-tahlili, shuningdek, bevosita sotsiologik so'rovlar va empirik kuzatishlar keng qo'llanildi.

Natijalar. Qo'llanilgan ko'p o'lchovli metodologik yondashuvlar natijasida milliy marosimlar transformatsiyasi muammosini tushunish, tavsiflash va tasniflash bo'yicha qator konseptual va amaliy natijalar qo'lga kiritildi. Ushbu natijalar nafaqat mavjud jarayonlarni qayd etish, balki ularning ichki

mexanizmlari va ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilish imkonini berdi.

Konseptual apparatning aniqlashtirilishi Tadqiqotning dastlabki bosqichida metodologik chalkashliklarning oldini olish maqsadida madaniy jarayonlarni ifodalovchi tushunchalar chegarasi qat'iy belgilab olindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki:

O'zgarish (change) – eng umumiy kategoriya bo'lib, marosimning har qanday ko'rinishidagi siljishni anglatadi;

Evolutsiya (evolution) – tashqi bosimlarsiz, asta-sekinlik bilan kechuvchi, nisbatan uzviy va mantiqiy rivojlanishni;

Modernizatsiya (modernization) – marosimlarning an'anaviy, agrar yoki yopiq jamiyat tipidan zamonaviy, industrial/postindustrial jamiyat tipiga moslashib o'tishini bildiradi.

Biroq, zamonaviy o'zbek jamiyatidagi jadal jarayonlarni tasvirlash uchun ushbu tushunchalar yetarli emasligi ma'lum bo'ldi. Shu sababli, tadqiqotda transformatsiya atamasi yetakchi ishchi tushuncha sifatida qabul qilindi. Natijalarga ko'ra, transformatsiya bu – marosimning shunchaki tashqi ko'rinishi emas, balki uning shakli va/yoki mazmunidagi chuqur, ko'p qatlamli, va sifat jihatidan tub o'zgarishdir. Edvard Shils ta'kidlaganidek, an'ana davomiylik va o'zgaruvchanlikning dialektik birligidan iborat bo'lib, ushbu tushuncha aynan shu ziddiyatli mexanizmni to'liq ochib bera oladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari va ishlab chiqilgan metodologik modellar shuni ko'rsatadiki, milliy marosimlar transformatsiyasining markaziy o'qi va ayni paytda eng ziddiyatli nuqtasi-shakl va mazmun o'rtasidagi dialektik nomutanosiblikdir. Tarixiy tajriba va zamonaviy kuzatishlar tasdiqlaydiki, marosimning tashkiliy-shakli ifodasi uning qadriyatli-ma'noviy o'zagiga nisbatan doimo tezroq o'zgarishga moyil bo'ladi. Bu tezlashuv bugungi iste'mol jamiyati va vizual madaniyat davrida yanada yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Mazkur nomutanosiblik jamiyatda ikkita jiddiy ziddiyatni yuzaga keltiradi:

Mazmunning bo'shab qolishi (desemantizatsiya): Odamlar marosimning tashqi unsurlarini o'ta dabdaba bilan saqlab qolishadi (hatto uni asossiz boyitishadi), ammo uning asl mohiyati (masalan, yoshlarga oq fотиha berish, jamiyatni jipslashtirish, ma'naviy poklanish) butunlay unutiladi. Natijada marosim ijtimoiy birdamlik vositasidan ijtimoiy tabaqalanish, raqobat va o'zini ko'z-ko'z qilish (statusni namoyish etish) quroliga aylanib qoladi.

Eski shaklning asossiz qotib qolishi: Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlari va qadriyatlari o'zgargan bo'lsa-da, ba'zi marosim qoliplari sun'iy ravishda ushlab turiladi. Bu holat marosimning yosh avlod uchun zerikarli, iqtisodiy jihatdan og'ir va mantiqsiz bir majburiyatga aylanishiga olib keladi.

Har ikki holat yakunda «marosim inqirozi»ni keltirib chiqaradi. Sinergetik yondashuv (I. Prigojin, X. Xaken) orqali tahlil qilinganda, ma'lum bo'ladiki, kuchli tashqi ta'sirlar-globallashuv, raqamli madaniyat va bozor munosabatlari qamrovi kengaygan sharoitda marosimlar doim ham bosqichma-bosqich, silliq evrilishni boshidan kechirmaydi. Ba'zan tizim o'ta kuchli zo'riqishga uchrab, «bifurkatsiya» (beqarorlik) nuqtasidan o'tadi va sakrash tarzida butunlay yangi, kutilmagan ijtimoiy ko'rinishlarga o'tib ketadi. Misol uchun, qisqa vaqt ichida to'y-ma'rakalarda ilgari umuman bo'lmagan, chetdan kirib kelgan "gibrid" odatlarning ommaviy tus olishi aynan shu sinergetik sakrash natijasidir.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, maqolada ishlangan metodologik prinsiplar va konseptual modellar kelgusida muayyan milliy marosimlarni (masalan, to'y, motam yoki

bayram marosimlarini) alohida, empirik jihatdan chuqur tadqiq etish uchun ishonchli ilmiy poydevor va tahlil vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, milliy marosimlar transformatsiyasi muammosini tadqiq etish shunchaki tarixiy yoki etnografik tavsif bilan cheklanib qolmaydigan, balki chuqur ijtimoiy-falsafiy va sotsiologik yondashuvni talab etuvchi murakkab jarayondir. Maqolada ishlab chiqilgan metodologik asoslar – tarixiylik, tizimlilik, shakl va mazmun dialektikasi, sinergetika, germenetika va aksiologik tamoyillar uyg'unligi – ushbu jarayonning ham obyektiv tizimli sabablarini, ham qatnashchilarning subyektiv intilishlarini yaxlit holda o'rganish imkonini beradi.

Tadqiqot doirasida olingan eng muhim ilmiy xulosalarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Birinchidan, marosim qotib qolgan, o'zgarmas dogma emas, balki tirik sotsiomadaniy mexanizmdir.

Transformatsiyaning asosiy harakatlantiruvchi kuchi marosimning tashkiliy shakli (xarakteri) va uning qadriyatli mazmuni (o'zagi) o'rtasidagi doimiy ziddiyat hisoblanadi. Tadqiqot tasdiqlaydiki, shakl doimo mazmundan ko'ra tezroq evrilishga moyildir. Aynan shu tezlikdagi farq marosimlarda yo moslashuvni, yoki inqirozni yuzaga keltiradi.

Ikkinchidan, bugungi shiddatli axborot va iste'mol jamiyati sharoitida marosimlar uchta asosiy trayektoriya bo'yicha transformatsiyaga uchramoqda. Bular orasida eng jiddiy xavf tug'dirayotgani-desemantizatsiya (ma'nosizlashuv) jarayonidir. Odamlar ongi va kundalik amaliyotida marosimning haqiqiy ma'naviy-ijtimoiy funksiyalari (birdamlik, poklanish, sotsializatsiya) unutilib, uning o'rini faqat tashqi ko'z-ko'z qilish, isrofgarchilik, moliyaviy maqomni ko'rsatishga qaratilgan sun'iy va mantiqsiz xatti-harakatlar egallamoqda. Bu esa marosimlarning ijtimoiy bog'lovchilikdan ko'ra, jamiyatni tabaqalashtiruvchi omilga aylanib qolishiga olib kelmoqda.

Uchinchidan, chetdan kirib kelayotgan global yoki ommaviy madaniyat unsurlarining milliy odatlarimiz bilan qorishuvi (gibridlashuv) sinergetik qonuniyatlarga ko'ra ba'zan kutilmagan, sakrash tarzidagi o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bu kabi o'zgarishlarni to'g'ri baholash uchun faqatgina taqiqlar yoki eski odatlarni idealizatsiya qilish usuli ish bermaydi. Buni baholashning eng adolatli va hayotiy mezonini milliy madaniyatimizning o'zida mujassam bo'lgan - «adab» (me'yor, mo'tadillik, rasionallik) prinsipidir. Qaysi marosim o'z milliy o'zagini saqlab, me'yor doirasida zamonga moslashsa, u hayotiyligini davom ettiradi.

ADABIYOTLAR

1. Alimova D., & To'rayev, S. (2024). "O'zbekistonda oilaviy marosimlarning sotsiomadaniy transformatsiyasi: sabab va oqibatlar". Sotsiologiya va psixologiya, 2(1), 34-41.
2. Karimov B. (2023). "Globallashuv va milliy o'zlik: an'analar desemantizatsiyasi muammosining ijtimoiy-falsafiy tahlili". Falsafa va huquq, 4, 15-22.
3. Bekmuradov M. (2026). "Marosim inqirozi va uning ijtimoiy oqibatlari: sinergetik yondashuv". O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari (Ijtimoiy fanlar seriyasi), 1(4), 89-95.
4. Ибрагимов Р. Н. (2025). "Трансформация ритуальных практик и традиций в условиях цифрового общества". Социологические исследования (СоцИс), 8, 55-64.